DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-05-03-60 Pages: 527-533

Oriental Journal of Philology



ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:
http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about



DIDACTIC FEATURES OF THE INTEGRATIVE APPROACH IN TEACHING ARABIC WRITING SKILLS

Muxtasar D. Radjabova
Doctoral student
Uzbek State University of World Languages
Email: muxtasarradjabova 1985@gmail.com
Uzbekistan, Tashkent

ABOUT ARTICLE

Key words: writing, speaking, reading, listening, skills, Arabic language, integration, integrative approach, types of speech activity.

Received: 06.03.25
Accepted: 08.03.25
Published: 10.03.25

Abstract: This article analyzes the didactic features of the integrative approach aimed at developing both productive and receptive language skills in teaching Arabic writing. In particular, it examines the relationship between writing and each type of speech activity separately and highlights various aspects of their interaction, which are crucial for the educational process.

ARAB YOZUVINI O‘RGATISHDA INTEGRATIV YONDASHUVNING DIDAKTIK XUSUSIYATLARI

Muxtasar D. Radjabova
Tayanch doktorant
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Email: muxtasarradjabova 1985@gmail.com
O‘zbekiston, Toshkent

MAQOLA HAQIDA

Kalit so`zlar: yozuv, gapirish, o‘qish, tinglash, malaka, arab tili, integratsiya, integrativ yondashuv, nutq faoliyati turlari.

Annotatsiya: Bu maqola arab tilida yozuv malakasini shakllantirishda ham produktiv ham retseptiv til malakalarini kompleks o’rgatishga qaratilgan integrativ yondashuvning o‘ziga xos didaktik xususiyatlarini tahlil qilishga qaratilgan. Xususan, unda yozuv malakasining har bir nutq faoliyati bilan bog‘liqlik jihatlari alohida ko‘rib chiqilgan va ta’lim jarayoni uchun muhim bo’lgan ular o’rtasidagi o‘zaro ta‘sirining bir qator jihatilari yoritilgan.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА В ОБУЧЕНИИ АРАБСКОМУ ПИСЬМУ

Мухтасар Д. Ражабова
Докторант
Узбекский государственный университет мировых языков
Email: muxtasarradjabova 1985@gmail.com
Узбекистан, Ташкент

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: письмо, говорение, чтение, аудирование, навык, арабский язык, интеграция, интегративный подход, виды речевой деятельности.

Аннотация: Данная статья посвящена анализу дидактических особенностей интегративного подхода, направленного на комплексное обучение как продуктивным, так и рецептивным языковым навыкам при формировании навыков письма на арабском языке. В частности, рассматриваются аспекты взаимосвязи письма с каждым видом речевой деятельности, а также освещаются различные аспекты их взаимодействия, имеющие важное значение для учебного процесса.

Kirish. Arab tilini o’qitish jarayonida dastlabki quyi bosqichlar juda murakkab va muhim bosqich hisoblanadi. Sababi yuqori bosqichlarda arab tili bo’yicha talabalarning egallaydigan ko’nikma va malakalari aynan quyi bosqichda erishgan natijalariga bevosita bog’liq. I.Ibragimov fikricha, arab tilini o‘rganishning dastlabki bosqichida, yozuv nutq faoliyatining eng muhim turi hisoblanib, arab tilida yozuv malakasini o‘zlashtirmasdan, tinglab tushunish, gapirish va o‘qish malakalarini rivojlantirish qiyin jarayondir. Arab yozuvi nutq faoliyatining boshqa turlarini o‘rgatishning asosidir. (Ibragimov, 2004, p. 64). Yozuv nafaqat qolgan nutq faoliyatlarini rivojlantirishga yordam beruvchi vosita, balki mustaqil nutq faoliyati turi sifatida arab tilini o’qitishda maqsad hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Arab tilida yozuv malakasining ahamiyati va uni o‘qitish masalalari I.J. Ibragimov, E.M. Lahlali, B.Badruzzaman, N.Hafizah, Husni Abdul Bariy, Valid Jaber kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida ko‘rib chiqilgan. Arab tilida yozuv malakasi va uni shakllantirishda samarali bo‘lgan yondashuvlarni tanlash borasida mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga murojat qilindi. Mavzu doirasida o‘rganilishi zarur bo‘lgan jihatlarni yoritishda tahliliy-sintetik, qiyosiy-taqqoslash tahlil usullaridan foydalanildi.

Natijalar. Chet tillarida yozuvni o‘qitishda nutq faoliyatining barcha turlarining o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda, ham produktiv ham retseptiv til malakalarini kompleks o’rgatishga qaratilgan integrativ yondashuv arab tilida yozuv malakasini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega.

S.I.Korneyev integratsiya so‘ziga shunday ta’rif beradi: “Integratsiya-o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalar tizimining yaxlitlik darajasini oshirish uchun ta’lim mazmuni elementlarini birlashtirish jarayoni va natijasidir.” (Korneyev, 2004, p. 14). Ta’limda so’nggi yillarda integratsiya so’zi bilan integrativ yondashuv so‘zi ham qo‘llanilmoqda. Albatta, integrativ yondshuv yordamida bilim umumlashtiriladi, bu esa o‘quvchiga uning yaxlitligini tushunish imkonini beradi.

Bir qator olimlar yozuvni integrativ yondashuv asosida o‘qitish borasida ijobiy fikrlarni bildiradilar. Jumladan, Sanches yozuvni integrativ yondashuv asosida o‘qitish talabalarga tildan kommunikativ tarzda foydalanish imkonini berishini, yozuv amaliyoti har bir nutq faoliyati bilan chambarchas bog‘liq ekanligini hamda nutq faoliyati turlarining doimiy integratsiyasi yordamida yozuv mashqlarida samarali natijalarga erishish mumkinligini ta’kidlaydi. Selinker esa yozuvni boshqa nutq faoliyati turlaridan alohida o‘qitish talabalarga o‘z fikrlarini yozma bayonida turli g‘oyalarni qo‘llashlariga to‘sqinlik qilishini aytadi. (Kitila, Ali & Bekele, 2023, p. 298)

Arab tilining o‘ziga xos xususiyatlarini, jumladan talaffuzning ahamiyati, sarf va naxv qoidalarining murakkabligi hamda lug‘at boyligining kengligi arab yozuvini shakllantirishda integrativ yondashuvni zarur ekanligini ko‘rsatadi. Sababi kishi ichki nutqida shakllangan fikrini matn shakliga keltirishi uchun xotiradagi lug’at boyligidan kerakli so’zlarni tanlaydi, so’ngra uni grammatik jihatdan shakllantiradi. Og’zaki nutqqa qaraganda yozma nutqda grammatik xatolar yaqqol ko’zga tashlanadi. Talabaning yozuv malakasini qay darajada shakllangani bevosita uning o’rganayotgan tilidagi lugat zahirasini va grammmatik qoidalarini egallashi bilan bevosita bog’liqdir. Bu esa yozuv malakasini nafaqat nutq faoliyati turlari balki til birliklari bilan ham integratsiya qilgan holda o’rgatishni talab etadi. Nutq faoliyatining boshqa turlari kabi yozuvda ham o’rganilayotgan tilga xos umumiy til lug’at zaxirasi va grammatikasi qo’llaniladi.

Tinglab tushunishning asosiy mexanizmlaridan biri bo’lgan fonemik eshitishni rivojlantirish arab tilini o’qitishning boshlang’ich bosqichida birlamchi vazifa hisoblanadi. Sababi arab tili fonetikasini egallash talabalar uchun murakkab jarayon hisoblanadi. Bu borada arabshunos olim Valid Jaberning aytishicha, talabalarga arab tilida tovushlarining grafik shaklini o‘rgatishni boshlashdan avval, dastlab tovushlarning talaffuzini o‘rgatish zarur. Albatta arab tilida yozuvga o’rgatishning dastlabli bosqichida arab harflari va ularning talaffuzi o’rtasida mustahkam aloqalarni shakllantirish lozim. Misr Rushdi universiteti professor Ahmad Tim

aytishicha, talaffuzni o‘rgatish talabalarni arab tilida ular eshitadigan yoki talaffuz qiladigan til birliklarini tushunish uchun ovoz tizimidan foydalanishga mashq qilishni nazarda tutadi. (Shayxullin, 2006, p. 155)

Talaffuz ko’nikmalari arab tilini o’qitishning quyi bosqichlarida to’liq avtomatlashtirilgan darajaga yetkazilishi uchun talabalar ko’proq til egalari tomonidan talaffuz qilingan arabcha so’zlarni va matnlarni tinglashlari zarur. Arab tilidagi tovushlarni tinglab, ularni nutq jarayonida farqlay olish boshqa nutq faoliyati turlarining rivojlanishida ham muhim ahamiyatga ega, sababi fonetik bilimlarni egallash arab tili darslarida muhim vazifadir. Bu bilimga ega bo’lmasdan, so’zlarni tovushlarga to’g’ri ajratish yoki tovushlarni harflar bilan ifodalash mumkin emas. Yozuv tizimida tilning har bir fonemasi aniq bir harf bilan ifodalanadi.

Arabshunos olim Husni Abdul Bariy arab tilini o’qitishda yozuv va tinglab- tushunish o’rtasidagi bog’liqlik haqida shunday fikrni bildiradi: tinglab-tushunish nutq faoliyati turlarining birinchi ko’nikmasi bo‘lib, asosi eshitish sezgisiga tayanadi. Bu sezgi a’zolari ma‘no va mazmunga ega lug‘aviy tovushlarni qabul qiladi. Tinglab-tushunishlik yordamida hosil bo‘lgan jarayon aqliy faoliyat sanaladi. Mana shu joyda yozuvning tinglab-tushunish ko‘nikmasi bilan aloqasi ikki tomonlama namoyon bo’ladi. Bu avvalambor so‘zlarni va gaplarni imloviy jihatdan to‘g‘ri yozishlik jihati bo‘lib, tinglab tushuninsh ko’nikmasi bu jihatdan yozish uchun vosita vazifasini o’taydi. Sababi yozuvchi oldin eshitmagan so‘zlarini to’gri yozishga qiynaladi. Bu esa, so‘z va gaplarni yozishda tovushlarni farqlash va tushinishlikni taqoza qiladi. Ikkinchi jihati bu – fikrni yozma ifodalashdir. Sababi inson tasavvur qilish qobilyatisiz hech bir mavzuda yoza olmaydi. Tinglangan matnni tasavvur qilish asosida inson fikrlarini yoza oladi. (Abdulbariy, 2004, p. 101)

Albatta, tinglab tushunish nafaqat yozuv texnikasini balki yozma nutqni shakllantirishda asosiy vosita bo’luvchi malakalardan biridir. Yozma nutqni tinglab tushunish bilan integratsiyasi borasida tadqiqot olib borgan, G.Maru va Gh.Pikirang bu borada shunday deydi: Tinglab tushunish o’quvchilarga ma’lumotlarni qayta ishlashga yordam beruvchi idrok etish qobiliyatidir. Tinglab-tushunish atrof-muhitni talqin qilishda muhim jarayon bo’lib, ma’lumotlarni mulohaza qilish, eshitganlarini idrok etish va ularga yozma va og’zaki javob berish imkonini beradi. (Maru & Pikirang, 2023, p. 224)

Tinglab tushunish va yozuv malakalarining integratsiyasi talabalarga yangi ma’lumot va g‘oyalarni qabul qilish, ularni tahlil qilish hamda yozma nutqda samarali qo‘llash imkonini beradi. Natijada, talabalarning yozma nutqi aniq, boy va mazmunli bo‘ladi hamda ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari ham rivojlanadi.

Fikrni yozma ifodalashning tinglab-tushunish va gapirish bilan yaqinligi nafaqat ularning kelib chiqish modellarining o’xshashligi bilan, balki ularning namoyon bo’lish jarayonidagi

eshitish, taxmin qilish, xotira, diqqat shuningdek ko'ruv, nutq mator kabi psixologik mexanizmlarning o'zaro bog'liqligida ham nomoyon bo'ladi. (Zimnaya, 1988, p. 150)

Yozuv va gapirish o'rtasidagi bog'liqlik avvalambor, har ikki nutq faoliyatining psixologik mexanizmlarini birligida namoyon bo'ladi. Yozuv va gapirishning mahsuli ma'lum bir mazmunning ifodasidir. Fikrlarni og'zaki yoki yozma shakllantirishda mos lingvistik vositalarni tanlash va jumlalardagi so'zlarni bir-biriga bog'lash zarurati tug'iladi. Yozma nutq hamisha ichki nutqda talaffuz qilingan og'zaki nutq bilan birgalikda shakllanadi. (Shaban, 2023, p. 343)

Shu boisdan gapirish malakasi yozuv bilan mustahkam aloqaga ega bo‘lib, ularni bog'lab turuvchi yana bir qancha jihatlar mavjud. Bu borada Ibn Xaldun quyidagi jihatlarni sanab o‘tadi: birinchidan, har ikkala nutq faoliyatining tayanchi leksik tovushlardir, ikkinchidan, gapirish malakasining tarkibiy qismlari bu yozuv malakasining ajralmas komponentlaridir. Har ikkala malaka egasi yozuvchi ham so‘zlovchi ham oldindan yozish va gapirish orqali ifodalamoqchi bo‘lgan maqsadlarini, mavzularini aniqlab olmog‘i zarur. (Najmuddin, 2013, p. 98)

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslanib, gapirish va yozuv integratsiyasi yozuv malakasini shakllantirishda samarali va foydali ekanligini aytish mumkin. Shuningdek, gapirish va yozuv malakalarining integratsiyasi ta'lim jarayonini interaktiv va qiziqarli bo‘lishiga yordam beradi, bu esa talabalarning bir-birlari bilan fikr almashishlari va birgalikda ishlashiga undaydi.

Nutq faoliyati turlaridan bir-birini to'ldiruvchi yozuv va o'qish o'rtasidagi munosabat ko'pgina g'arb tadqiqotlarining diqqat markazida bo'lgan. Ularda yozuv hamda o'qish yagona grafik kommunikativ kodga asoslangani, bu nutq faoliyati turlari psixologik jihatdan o'xshashligi isbotlangan. Biroq ular turli maqsadga yo'naltiriladi, ya'ni o'qish retseptiv, yozuv produktiv nutq faoliyatidir. O'qish harfdan tovushga, yozuv esa tovushdan harfga yo'naltiriladi. Ya'ni birinchi holatda ma'lumotlarni dekodlash, ikkinchi holatda esa kodlash sodir bo'ladi. Yozuv va o‘qish texnikasini o‘rgatishdagi umumiy jihat hisoblangan tovush-harf munosabati arab tilida yozuv va o'qishga o'rgatish parallel olib borilishiga va bu ikki ko'nikma bir-birini to'ldirishiga asos bo'la oladi.

Arab tilida yozuv va o'qish malakalari haqida arabshunos olim Rosni Samax shunday deydi: “Arab tilida yozishni o‘rganish talaba o‘qish qobiliyatini egallaganidan keyin boshlanadi. Yozuv malakasini egallash uchun talabalar nafaqat o'qish balki o'qigan narsalarini tushunish ko‘nikmasiga ham ega bo'lishlari va yozishda yordam beradigan usullarni aniqlay olishlari kerak. O'qish yozuv malakasini rivojlantirish vositasidir. Bu ikki nutq faoliyati turlari uzviy bog'liq bo'lib, o'qish yordamida talabalar fikrini yozma bayon qila oladilar.” (Nur Hafizan, 2015, p. 20)

Metodistlar o’qish va yozuv o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlab, ta’lim jarayoni uchun muhim bo’lgan ular o’rtasidagi o‘zaro ta’sirining yana bir jihatini qayd etadilar. O’qish yordamida talaba ongi yangi lug’at birliklari, murakkab sintaktik tuzilmalar bilan boyitiladi, bu esa gapirish va yozuvni rivojlantirishga yordam beradi. Talaba arab tilida biror matn yozishda yoki matnni o’qish jarayonida matn mavzusi, uning tuzilishi, janr xususiyatlari, shuningdek yozuvchi va o’quvchi o’rtasidagi muloqot jarayoni kabi bir xil bilimlar tizimidan foydalanadi. A.Rubin va Dj.Xansenlar o‘qishni o‘rgatish mazmunining bir qismi bo‘lgan bu bilimlar yozuvni o’rgatish vositasi bo’lib kelishini qayd etadilar. (Nuja & Shemeleva, 2013, p. 115)

Demak, o‘qish va yozuv integratsiyasi talabalarning lug‘at boyligini oshirish, grammatik qoidalarni o‘rganish, matn tuzilishini tushunish, tahlil qilish va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish orqali yozuv malakasini sezilarli darajada yaxshilash imkonini beradi.

Xulosa. Yozish jarayonida akustik, nutq-motor, ko’ruv va qo’l-motor analizatorlaridan foydalangan holda barcha turdagi sezgilarga tayaniladi. Shu jihatlari bilan yozuv boshqa nutq faoliyati turlari bilan bevosita bog’liq bo’lib, uni integrativ yondashuv asosida ya’ni, tinglab tushunish, gapirish va o’qish malakalari bilan birgalikda teng shakllantirish arab tilida yozuv malakasini egallashni tezlashtiradi hamda yozma vazifalarni bajarish jarayonini osonlashtiradi. Shuningdek, integrativ yondashuv nafaqat yozuv malakasini balki qolgan nutq faoliyati turlarini ham teng rivojlanishiga yordam beradi. Ba’zi talabalar ma’lumotni tinglab, gapirib o’zlashtirsalar ba’zilari esa o’qib yoki yozib yaxshi eslab qoladilar. Agar talaba arab tilidagi matnni tinglab, gapirib, o’qib hamda yozsa tilni o’zlashtirishi sezilarli darajada oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Fantahun Kitila, Sherif Ali, Ebissa Bekele. (2023) The Impact of Writing Through Integrated Skills Intervention on English Students’ Writing Skills: Focus on Vocabulary and Grammar. Journal of Language Teaching and Research, 14 (2), 297-303. Doi:https://jltr.academypublication.com/index.php/jltr/article/view/5543

2. Hafizah, N. (2015). Dissertation submitted in fulfillment of the requirements for the Master's degree in Modern Language Studies: Dissertation ... Master's degree in Modern Language Studies – Kuala Lumpur. – 144 pages.

3. Maru, M., Pikirang, Gh. (2020). Integrating writing with listening in EFL class:a systematic review. Advances in social science, education and humanities research, 477, 222-226. retrieved from https://www.atlantis-press.com/proceedings/icss-20/125944969

4. Zimnyaya, I. (1988). Psychological Aspects of Teaching Speaking in a Foreign Language. Psixologicheskiye aspekti obucheniya govoreniya na inostrannom yzike. Prosveshchenie. -Moscow. -136 p. (in Russian)

5. Ibragimov, I. (2004). Teaching the Fundamentals of Arabic Language Proficiency: Dissertation for the Degree of Candidate of Pedagogical Sciences. Obucheniya osnovam vladeniya arabskim yazikom – Pyatigorsk. -164 p. (in Russian)

6. Korneev, S. (2004). Integration of General and Professional Education Content in the Context of a Specialized School.Integratsiya soderjaniya obshego I professionalnogo obrozovaniya v usloviyax profolnoy shkoli -Petersburg. -28 p. (in Russian)

7. Nuzha, I., & Shchemeleva, I. (2013). Teaching Writing Through Reading in the English Language Course. Obucheniye pisma cherez chteniye v kurse angliyskogo yazika. Bulletin of the Northern (Arctic) Federal University, No. 5, 113-122. (in Russian)

8. Shaban, O. (2018). Modern Approaches to Teaching Writing in the German Language. Sovremenniy podxodi k pismennoy rechi na nemetskom yazike. retrieved from https://elib.bsu.by/handle/123456789/7453 (in Russian)

9. Shaikhullin, T. (2006). Implementation of Problem-Based Learning Technology in Higher Education: A Case Study of Teaching Arabic Language and Country Studies. Dissertation for the Degree of Candidate of Pedagogical Sciences. Realizatsiya texnologii problemnogo obucheniya v vishey shkole: na primere prepodavaniya arabskogo yazika I stranovedeniya. – Kazan. – 199 p. (in Russian)

10. Asr, Bari.(2018). Issues in Teaching and Instructing the Arabic Language. Talimul lug‘atil arobiyati va tadrisuha.The Modern Arabic Office, Alexandria.- Egypt. 123p. (in Arabic)

11. Najm Al-Din, Mubarak Hussein. (2013). Writing Skills and Their Applications. Maharatul kitabati va tatbiqotiha. Journal of Islamic Sciences and Research, Sudan University of Science and Technology.-Sudan.220-229.(in Arabic)